



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA NEYROPEDAGOGIKA YORDAMIDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Sidiqova Yulduz Sobirovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida neyropedagogika yondashuvlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari keng yoritiladi. Neyropedagogika – bu miya faoliyati, neyropsixologiya va pedagogikaning integratsiyasi asosida shakllangan zamonaviy ilmiy yo'nalish bo'lib, u o'quv jarayonini inson miyasining ishlash qonuniyatlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda kognitiv jarayonlar, xotira, diqqat, emotsional holat va motivatsiyaning o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, neyropedagogik metodlar asosida o'qitishning samaradorligi, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligi o'rganiladi. Maqola ta'lim tizimida nutqiy rivojlanishni ilmiy asosda takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Neyropedagogika, nutqiy ko'nikmalar, kognitiv jarayonlar, ta'lim texnologiyalari, miya faoliyati, kompetensiya, innovatsion ta'lim, nutq rivojlanishi, psixolingvistika, raqamli pedagogika.

Abstract: This scientific article extensively discusses the development of students' speech skills through the application of neuropedagogical approaches in the modern educational process. Neuropedagogy is a contemporary scientific field formed through the integration of brain science, neuropsychology, and pedagogy, aimed at adapting the learning process to the functioning principles of the human brain. The study analyzes the role of cognitive processes, memory, attention, emotional state, and motivation in the development of speech competence. In addition, the effectiveness of teaching based on neuropedagogical methods, as well as its compatibility with innovative approaches and digital technologies, is examined. The article also provides recommendations aimed at improving speech development in the education system on a scientific basis.

Key words: Neuropedagogy, speech skills, cognitive processes, educational technologies, brain activity, competence, innovative education, speech development, psycholinguistics, digital pedagogy.

Аннотация: В данной научной статье подробно рассматриваются вопросы развития речевых навыков учащихся посредством использования нейрopedagogических подходов в современном образовательном процессе. Нейрopedagogика представляет собой современное научное направление, сформированное на основе интеграции знаний о деятельности мозга, нейрopsихологии и педагогики, и направленное на адаптацию образовательного процесса к закономерностям функционирования человеческого мозга. В исследовании анализируется роль когнитивных процессов, памяти, внимания, эмоционального состояния и мотивации в развитии речевой компетентности. Также изучаются эффективность обучения на основе нейрopedagogических методов, их сочетание с инновационными подходами и цифровыми технологиями. Статья содержит рекомендации, направленные на научно обоснованное совершенствование речевого развития в системе образования.

Ключевые слова: Нейрopedagogика, речевые навыки, когнитивные процессы, образовательные технологии, деятельность мозга, компетентность, инновационное образование, развитие речи, психолингвистика, цифровая педагогика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi tezkor global o'zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keng kirib kelishi va kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki nutq – bu nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlash, tahlil qilish va ijodiy faoliyatning asosiy omillaridan biridir. So'nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlari kesishmasida yangi yo'nalish – neyropedagogika shakllanib, u ta'lim jarayonini inson miyasining tabiiy ishlash mexanizmlariga moslashtirishga qaratilgan. Neyropedagogika o'quvchilarning individual xususiyatlarini



inobatga olgan holda, ularning kognitiv salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi. Nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida esa bu yondashuv juda muhim hisoblanadi, chunki nutq bevosita miya faoliyatining murakkab neyron tarmoqlari bilan bog'liqdir. Shu bois, ushbu maqolada neyropedagogika asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Neyropedagogika zamonaviy ta'limning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida inson miyasining o'rganish, eslab qolish, tahlil qilish va qayta ishlash jarayonlarini pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda miya yarim sharlari faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, chap yarim shar mantiqiy va lingvistik jarayonlarni boshqarsa, o'ng yarim shar emotsional, obrazli va kreativ fikrlashni ta'minlaydi. Neyropedagogik yondashuvda ushbu ikki tizimning muvozanatli ishlashiga erishish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Nutqni o'rganish jarayonida eshitish, ko'rish, motor va emotsional tizimlar birgalikda faoliyat yuritadi, bu esa sinaptik bog'lanishlarning mustahkamlanishiga olib keladi.¹

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda diqqat va xotira jarayonlari markaziy o'rinni egallaydi. Neyropedagogik tadqiqotlarga ko'ra, o'quv jarayonida emotsional faollik yuqori bo'lsa, axborot uzoq muddatli xotirada yaxshiroq saqlanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari va emotsional stimullardan foydalanish nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, rolli o'yinlar, debatlar, muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi va ularning miyada nutq bilan bog'liq neyron tarmoqlarini faollashtiradi.

Shuningdek, neyropedagogika nuqtayi nazaridan takrorlash va mashq qilish jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Miya neyronlari takroriy faoliyat natijasida mustahkamlanadi va avtomatik ko'nikmalar shakllanadi. Nutqiy faoliyatda bu jarayon so'z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish va erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, vizual va audio materiallardan foydalanish ham nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi, chunki turli sensor kanallar orqali qabul qilingan axborot miya tomonidan yaxshiroq qayta ishlanadi.

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi neyropedagogik yondashuvlarni yanada keng qo'llash imkonini bermoqda. Multimedial platformalar, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim trayektoriyalarini yaratishga yordam beradi. Bu esa nutqiy ko'nikmalarni individual tempda rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, nutqni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar o'quvchilarning talaffuz, intonatsiya va grammatik xatolarini aniqlab, ularni tuzatishga yordam beradi.²

Neyropedagogik yondashuvda motivatsiya ham muhim omil hisoblanadi. O'quvchining ichki motivatsiyasi yuqori bo'lsa, miya dopamin tizimi faollashadi va o'rganish samaradorligi oshadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida rag'batlantirish, ijobiy fikr bildirish va individual yondashuvni kuchaytirish nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, stressning kamayishi ham o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki yuqori stress holatida miya axborotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyatini yo'qotadi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda psixolingvistik omillar ham muhim ahamiyatga ega. Tilni o'zlashtirish jarayoni faqat grammatik qoidalarni yodlash emas, balki muloqot vaziyatlarida tilni faol qo'llash orqali shakllanadi. Neyropedagogika bu jarayonni tabiiy va samarali qilishga yordam beradi, chunki u miyaning tabiiy o'rganish mexanizmlariga asoslanadi. O'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda dialogik metodlar, muhokama va tahlilga asoslangan mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, neyropedagogik yondashuvda individual farqlarni hisobga olish asosiy tamoyillardan biridir. Har bir o'quvchining miya faoliyati, o'rganish tezligi va qobiliyatlari turlicha bo'lganligi sababli, ta'lim jarayoni moslashuvchan bo'lishi lozim. Bu esa nutqiy ko'nikmalarni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Individual yondashuv asosida o'quvchilar o'zlariga mos metodlar orqali bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtiradilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zamonaviy ta'lim jarayonida neyropedagogika yondashuvlari yordamida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, neyropsixologiya va psixolingvistika sohalariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-taqqoslash, tahlil va sintez, kuzatish, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-taqqoslash metodi yordamida an'anaviy pedagogik yondashuvlar va neyropedagogik metodlarning nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'zaro solishtirildi. Tahlil va sintez

1 Sousa D. A. How the Brain Learns. Thousand Oaks: Corwin Press, 2017.

2 Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2021; Siemens, G. "Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age", 2005.

metodlari orqali nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi kognitiv jarayonlar, xotira, diqqat, motivatsiya va emotsional omillarning o'rni aniqlandi.

Shuningdek, neyropedagogik yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligini baholash maqsadida ilmiy tadqiqotlar natijalari va amaliy tajribalar umumlashtirildi. Tizimli yondashuv asosida neyropedagogika, raqamli texnologiyalar va nutqiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda neyropedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim jarayonida neyropedagogika asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi ilmiy jamoatchilik orasida keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuvning afzalliklari bilan bir qatorda uning amaliyotga tatbiq etilishida ayrim murakkabliklar ham mavjud. Avvalo, neyropedagogika tamoyillarini to'liq tushunish va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish uchun o'qituvchilardan yuqori darajadagi psixologik, neyrofiziolitik va metodik bilimlar talab etiladi. Aksariyat ta'lim muassasalarida pedagoglarning bu boradagi tayyorgarligi yetarli darajada emasligi mazkur yondashuvning keng joriy etilishiga to'siq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan texnik va metodik resurslar hamma joyda bir xil emasligi ham muhim muammolardan biridir.

Muhokama jarayonida yana shuni ta'kidlash kerakki, neyropedagogika asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quvchilarning individual neyropsixologik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Biroq amaliyotda bu jarayonni to'liq amalga oshirish har doim ham oson emas, chunki sinf sharoitida har bir o'quvchining kognitiv tezligi, diqqat darajasi va xotira imkoniyatlarini alohida kuzatish va moslashtirish ko'p vaqt va resurs talab qiladi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim texnologiyalari bu muammoni qisman yengillashtirishi mumkin, chunki adaptiv o'quv platformalari o'quvchilarning individual natijalariga qarab topshiriqlarni moslashtirish imkonini beradi.³

Shuningdek, nutqiy ko'nikmalarni neyropedagogik asosda rivojlantirishda emotsional muhitning ahamiyati ham muhokama markazida turadi. O'quvchi o'zini psixologik jihatdan xavfsiz his qilgan muhitda nutqiy faolligi ancha yuqori bo'ladi, chunki miya bunday sharoitda axborotni erkin qabul qiladi va qayta ishlaydi. Aksincha, stress, qo'rquv yoki baholanishdan qo'rqish holati nutqiy faoliyatni susaytiradi va kognitiv bloklanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, pedagogik jarayonda ijobiy psixologik muhit yaratish neyropedagogikaning asosiy talablaridan biri sifatida qaraladi.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat sifatida shuni qayd etish lozimki, neyropedagogik yondashuvlar an'anaviy pedagogik usullarni inkor etmaydi, balki ularni boyitadi va ilmiy jihatdan asoslaydi. Masalan, takrorlash, mashq qilish, dialog va muhokama kabi an'anaviy metodlar neyropsixologik nuqtayi nazardan ham o'z samaradorligini isbotlagan. Biroq zamonaviy yondashuvlarda ushbu metodlar multimodal ta'lim, vizualizatsiya, gamifikatsiya va raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirilmogda. Bu esa nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Yana bir muhim masala sifatida neyropedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlarning yetarlicha keng emasligi va empirik bazaning hali to'liq shakllanmaganligini ko'rsatish mumkin. Ayrim natijalar eksperimental kuzatuvlarga asoslangan bo'lsa-da, ularni keng miqyosda umumlashtirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda olib borilayotgan neyrota'lim bo'yicha izlanishlar bu yo'nalishning istiqbolli ekanini tasdiqlamoqda.

Umuman olganda, neyropedagogika asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi ta'lim tizimini inson miyasi faoliyatiga moslashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq uning samarali joriy etilishi uchun pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, metodik bazani takomillashtirish va texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida neyropedagogika yondashuvlaridan foydalanish nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o'quvchilarning miya faoliyatini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi va nutqiy kompetensiyaning tabiiy shakllanishiga yordam beradi. Emotsional faollik, motivatsiya, takrorlash, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar uyg'unligi nutqiy rivojlanish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Neyropedagogika asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, kelajak ta'lim tizimida neyropedagogik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

³ Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. Artificial Intelligence in Education. Center for Curriculum Redesign, 2019.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyamammedov B. – “Pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent, 2021.
2. Tolipov U., Usmonboyeva M. – “Pedagogik texnologiyalar va ularni qo'llash”. Toshkent, 2019.
3. G'afforov A. – “Zamonaviy ta'lim metodikasi”. Toshkent, 2020.
4. Smirnov A. A. – “Psixologiya xotirasi va tafakkur”. Moskva, 2018.
5. Kandel E. – “In Search of Memory: The Emergence of a New Science of Mind”. 2016.
6. Jensen E. – “Teaching with the Brain in Mind”. 2017.
7. Sousa D. A. – “How the Brain Learns”. 2017.
8. Spitzer M. – “Learning: The Human Brain and the School”. 2019.
9. Vygotsky L. S. – “Fikrlash va nutq”. Moskva, 1982.
10. Gagne R. M. – “The Conditions of Learning”. 2015.
11. Baddeley A. – “Working Memory, Thought, and Action”. 2012.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.